

30-01-18-son
2026-yil 30-aprel



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi
Xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi
H.S.Turaxujayev
2026-yil 30-aprel

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
“Xavflarni boshqarish” qo‘mitasining
2-son yig‘ilish BAYONI

2026-yil 30-
aprel

Toshkent shahri

- Raislik qiluvchi:** - **H. S. Turaxujayev** – O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi raisi
- Qatnashganlar:** - U.Davlatov - Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari;
A.Xakimov - Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish
va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi
boshlig‘i;
Sh.Shadmankulov - Yuridik ta‘minlash boshqarmasi
boshlig‘i;
N.Sabirov - Strategik rejalashtirish, metodologiya va
transformatsiya bo‘limi boshlig‘i;
- Yig‘ilish kotibi** - U. Toshboyev - Ichki audit, korrupsiyaga qarshi
kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish
bo‘limi bosh mutaxassisi

KUN TARTIBI:

- 1. Qo‘mitada xavflarni boshqarish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.**
- 2. Qo‘mitada 2026-yilning 1-choragi davomida Xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi holatini muhokama qilish to‘g‘risida.**

(H.Turaxujayev, U.Davlatov, A. Xakimov, Sh. Shadmankulov, N.Sabirov, H.Turaxujayev)

Yig‘ilishni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi (*keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita deb yuritiladi*) raisi H.Turaxujayev kirish so‘zi bilan ochib, kun tartibidagi masalalar bilan majlis qatnashchilarini tanishtirdi va

ushbu holatlar bo'yicha to'liq ma'lumot berilishi uchun so'zni Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi boshlig'i A.Xakimovga berdi.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha

A.Xakimov o'z so'zida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son qaroriga muvofiq, Qo'mitada "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi tashkil etilgani va qaror talablaridan kelib chiqib, Qo'mita faoliyatidagi moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish ishlari amalga oshirilayotganligi haqida ma'lumot berildi.

Jumladan, joriy yilning yanvar oyida o'tkazilgan xavf tahlili natijalariga ko'ra, Qo'mitaning 17 ta boshqarma va bo'limlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jami 43 ta xavf reestri tasdiqlangan bo'lib, ularni baholash va tahlil qilish natijalariga ko'ra, ularning darajasi 1 ta "yuqori", 23 ta "o'rta", 19 ta "past" darajada baholangan (*jadval ilova qilinadi*).

Shunga ko'ra, "yuqori" va "o'rta" darajadagi xavflarni kamaytirish (*oldini olish va bartaraf etish*) bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlangan.

Tahlil natijalari aksariyat xavflar Qo'mitaning asosiy faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida mazkur xavflarni muttasil monitoring qilish, erta aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuvni joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha

Qo'mitaning xavflarni kamaytirish (*oldini olish va bartaraf etish*) bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, 2026-yilning 1-choragi davomida Reklama bozori va kreativ sohalarni rivojlantirish bo'limida 1 ta, Devonxonada 1 ta, Strategik rejalashtirish, metodologiya va transformatsiya bo'limida 1 ta, Savdo, umumiy ovqatlanish va turizm sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'limida 1 ta jami 4 ta xavflarni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi belgilangan hamda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Qo'mitaning Strategik rejalashtirish, metodologiya va transformatsiya bo'limida operatsion xavflar toifasiga kiruvchi "Tarkibiy va hududiy bo'linmalardan kelib tushadigan ma'lumotlarning kechikishi yoki to'liq taqdim etilmasligi" bilan bog'liq ichki xavf turi aniqlangan bo'lib, ushbu xavf Qo'mitaning xavflar reyestrda "o'rta" darajada deb baholangan.

Mazkur xavfni kamaytirish bo'yicha Qo'mita tomonidan sohaga oid statistik hisobotlarni "FAIR TECh" yagona axborot tizimi orqali elektron shaklda yuritishini yo'lga qo'yish maqsadida, Qo'mitaning 2026-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda hududiy organlari faoliyatiga doir hisobotlarni "FAIR TECh" yagona axborot tizimi orqali shakllantirish, shuningdek hududiy organlar faoliyatini ular tomonidan yil davomida erishilgan maqsadli ko'rsatkichlar (*indikatorlar*) asosida baholash tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 43-ICH-son buyrug'i qabul qilindi.

Mazkur buyruqqa asosan statistik hisobotlarni "FAIR TECh" yagona axborot tizimi orqali elektron shaklda yuritish yo'lga qo'yildi. Natijada, "Tarkibiy va hududiy

bo'linmalardan kelib tushadigan ma'lumotlarning kechikishi yoki to'liq taqdim etilmasligi" xavfi bartaraf etilishiga erishilgan.

Shuningdek, Savdo, umumiy ovqatlanish va turizm sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'limida korrupsiyaviy xavflar toifasiga kiruvchi "Nazorat xaridlari" jarayonida xarid qilingan mahsulot (tovar)larni ekspertizadan o'tkazishda laboratoriya natijalarini xolislik (haqqoniylik) bilan rasmiylashtirilishidagi xavf" tashqi xavf turi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ushbu xavf Qo'mitaning xavflar reestrda "o'rta" darajada deb baholangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-25-son Farmoniga muvofiq laboratoriyalar tizimida amalga oshirilgan institutsional o'zgarishlar mazkur yo'nalishda shaffoflikni oshirish va korrupsiyaviy omillarni qisqartirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Natijada, "Nazorat xaridlari" jarayonida xarid qilingan mahsulot (tovar)larni ekspertizadan o'tkazishda laboratoriya natijalarini xolislik (haqqoniylik) bilan rasmiylashtirilishidagi xavf" bo'yicha korrupsiya omili bartaraf etilishi kutilmoqda.

Yuqorida keltirilgan masalalar yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni muhokama qilgan holda "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi

QAROR QILADI:

1. Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar Qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni ishchi organga taqdim etsin.

2. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi (A.Xakimov):

- tarkibiy bo'linmalar tomonidan aniqlangan xavflarning belgilangan tartibda baholab borilishini;

- tarkibiy bo'linmalar tomonidan chora-tadbirlar rejalarining ishlab chiqilishi va bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirib borilishini;

- xavflarni boshqarish jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha "Xavflarni boshqarish" qo'mitasiga kiritib borilishini ta'minlasin.

3. Devonxona (F.Ikramova) mazkur bayonnomani Qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalariga yuborilishini ta'minlasin.

4. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosari U.Davlatov zimmasiga yuklansin.

Kotib

U.Toshboyev

U.Davlatov (imzolangan)

Sh.Shadmankulov (imzolangan)

A.Xakimov (imzolangan)

N.Sabirov (imzolangan)